

BUXORO SHAHRI YARATILISHI TARIXI

Bobohusenov Akmal Ashurovich*Buxoro Innovatsion ta'lim va Tibbiyot Universiteti o'qituvchisi***ANONTATSIYA:**

Kirish:Maqolada Buxoro vohasining yaratilishi, Ark qo'rg'oning qurilishi haqidagi rivoyat va Narshaxiyning ma'lumotlari asosida Buxoro tarixini yoritishga urg'u berilgan.Ko'plab yunon va mahalliy tarixchilar tomonidan ma'lumotlar berib yuborilgan.Buxoro tarixini yoritishda juda kata ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar:Buxoro shahri, Quyi Zarafshon, Antik mualliflar,Kivint Kursiy Ruf,Geradot,Poykent, Avesto,Narshaxiy,Somoniy,Yakubovskiy,Rudi Masaf,Bitik.

Введение:В статье рассказывается о создании Бухарского оазиса, рассказе о строительстве крепости Арк, а также сведениях Наршахи по истории Бухары. Очень важно объяснить историю Бухары.

Ключевые слова: Город Бухара, Нижний Зарафшан, Древние авторы, Кивинт Курси Руфус, Герадот, Пойкент, Авеста, Наршахи, Сомони, Якубовский, Руди Масаф, Битик.

Introduction:The article focuses on the creation of the Bukhara oasis, the construction of the Ark fortress and the history of Bukhara based on the information of Narshahi. Information was provided by many Greek and local historians. It is of great importance in the history of Bukhara.

Keywords: Bukhara city, Lower Zarafshan, Ancient authors, Kivint Kursiy Ruf, Heradot, Poykent, Avesta, Narshahi, Somoniy, Yakubovsky, Rudi Masaf, Bytik.

Asosiy qism

Buxoro shahri asrlar davomida sharqning ilmu - ma'rifat, madaniyat markazlaridan biridir. Buxoro o'tmishda savdo - sotiq, madaniy aloqalar jihatdan markaziy Osiyoning mashhur Balx, Hirot, Marv, Samarqand, Termiz, Nasaf, Shosh, Xorazm shaharlari qatoridan joy olardi. O'rta asrlarda Buxoro Mrvarounnaxrning yirik savdo-sotik, hunarmandchilik va ma'muriy markazi bulib, yaqin va O'rta sharq mamlakatlarini Hindiston va Xitoy bilan bog'lagan. savdo yo'li - Buyuk ipak yuli ustida joylashgan. Buxoro diniy va dunyoviy ilmlar, tabobat, fiqx, tarix, faroniz, riyoziyot, xandasa va boshka sohalar rivojlaigap markaz xam bo'lgan. Bu zaminda ko'p zamonlar uchun mashhur va ma'lum mutaffakir olimlar va adiblar Ismoil Puxoriy, Ibn Sino, Narxashiy, Rudakiy, Dakikiy, Naqshbandiy va boshqalar yashab ijod etganlar. O'ilab madrasalarda minglab talabalar ilm olganlar.

Buxoro shahri yirik savdo sotik markazi na ma'muriy markaz sifatida ham faoliyat yuritgan. Quyi Zarafshon o'lkasining o'rta asr sulolalari va xokimlari, Buxoro podsholari (Buxorxudotlar) – IV-VIII asrlarda, Samoniylar IX —asrda va boshqa davlatlarning markazi bo'lgan. Uzbek xonliklari Shayboniylar, Ashtarxopiylar, Mang'itlar, sulolalari davrida ham poytaxt shahar bo'lgan. Buxoro o'tmishi garchi tarixiy va tadrijiy voqealarga boy va qiziqarli bo'lsada, ammo uning ko'pgina zarvaraklari, sahifalari to'liq saqlanmagan. Tarixnavislik uchun asos bo'ladigan asosiy manba-yozma manbalar va moddiy ashyoviy manbalar bo'lib, Buxoroning kadimgi tarixi uning qad kutargan davri xususida yozma manbalarda nihoyatda kam ma'lumotlar bor¹.

Dastlabki umumiy tarzdagi ma'lumotlar miloddan avvalgi IX asrda yaratilgan Hindlarning Rigveda to'plamida uchrab, unda shimol tomondan O'rta Osiyodan kelgan chorvador oriylar va ularning turmush tarzi haqida gap boradi. Miloddan avvalgi IX -IV asrlar mobaynida yaratilgan Eron va O'rta Osiyo zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" da xam shu yerlik xalqlarning turmush tarzi, xo'jaligi va e'tiqodlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Antik zamon mualliflaridan Gerodotning "Tarix" asarida Eron davlati haqida gapirilib, uning o'lkalaridan biri O'rta Osiyo haqida, bu erdagi massagetlarning turmush. tarzi xususida . ma'lumotlar berilgan².

Antik mualliflardan Kvint Kurstiy Ruf, Arrian, Polien singarilarining asarlarida miloddan avvalgi IV asrdagi makedoniyalik Aleksandr zamoniga oid ma'lum otlarni uchratamiz. Fakatgina Arrian asarida hozirgi Buxoro shahri joylashgan joydagi Kash nomli qal'a bir marotaba tilga olinadi.

Arablar zamonida ulargacha yaratilgan barcha qadimiy kitoblar, yozma manbalar yo'q kilingan. Hozirgacha Buxoro tarixi haqida yagona tarixiy asar Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridir. Asarning 8-bobida Buxoro arkining qurilishi haqida gap borib, Siyovush haqidagi rivoyat keltirilgan. "Ibn Kaykovus o'z otasi oldidan qochib, Jayxun daryosidan o'tib, Afrosiyob oddiga keladi. Afrosiyob uni yaxshi qabul qilib, o'z qizini unga xotinlikka berib barcha mulkini xam unga topshirdi". Rivoyat davomida Siyovush tomonidan Buxoro arkining bino qilinganligi va bu voqealar sodir bo'lganiga 3000 yildan ortiq vaqt o'tgan, deyiladi. Narshaxiy yashab o'tgandan keyingi 1000 yil qo'shilsa rivoyatga binoan Buxoroning yoshi 4000 yilga teng bo'ladi³.

Biroq Narshaxiy asaridagi 2-ma'lumot xam borki, u yuqoridagi sanani inkor qiladi. Bu ma'lumot Abruy bilan bog'liq ma'lumotlardir. Unga binoan VI asrning 80 yillarida yirik mulkdorlarga qarshi Paykendda kutarilgan xalk kuzgoloni xamda 586

¹ Мухаммажонов А. Бухоро шахри 2500 ёшда. –Т.: Фан, 1998. – Б. 43

³ Мухаммажонов А. Бухоро шахри 2500 ёшда. –Т.: Фан, 1998. – Б. 41

yilda turk hoqoni Qorachurin yordami bilan qo'g'olonning bostirilib, Abruy o'ldirilganligi voqeasidir. Buxoro shahri shu voqealar-zamonida paydo bo'lgan, deb keltiriladi⁴.

Bu sana asos qilib olinsa, shaharning yoshi 1400 yilga teng bo'ladi. Narshaxiy Buxoro o'rnashgan mavzeni ilgari botqoqlik bo'lib, uning ba'zi erlarini to'qayzor, daraxtzor, ko'kalamzorlar tashkil etgan. Ayrim joylari esa shunday bo'lganki biror hayvon ham oyoq qo'yishga joy topolmagan. Buning sababi Samarqand tomondagi viloyatlarda tog'larda qor erib suvi oqib kelib o'sha joyda yig'ilib uni, "Rudi Masaf" deb ataydilar. Bu daryodan ko'p suv oqib kelar loyqalarni to Bitik va Farobgacha surib keltiraverardi deb yozadi. So'ng suv toshib kelishi to'xtadi. Buxoro o'rnashgan joy asta-sekin to'lib qoldi.

Qadimgi Poykand xarobalarida arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Natijada Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy "Buxorodan qadimiyroqdir" - deb ko'rsatgan Poykand va Romishning quyi qatlamlarida qayd etilgan topilmalarning eng qadimiysi milodgacha bo'lgan IV asr oxiri-III asrga mansub ekani aniqlandi. Garchi Varaxshaning ostki qatlamidan milodgacha bo'lgan V-IV asrlarga oid sopol bo'laklari topilgan bo'lsa-da, ammo kovlab ochilgan yirik hajmdagi(40x27x10sm) xom g'ishtlardan terib chiqilgan, qalinligi 2 metr keladigan qadimgi devor hamda doira shakldagi ulkan mo'la milod boshlariga tegishli bo'lib chiqdi. Ko'hna Romitonning ostki qatlamlaridagi xarobalar esa milodning III-IV asrlariga tegishli ekani ma'lum bo'ldi⁵.

Buxoro yoshini aniqlash uning madaniyatini o'rganish uchun Buxoroda arxeologik tekshirish utkazish zarur bo'lib qoldi. Shaharning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish shaqar yoshini aniqlash, moddiy ashyoviy manbalarga bog'liq bo'lib qoldi. Birinchi jiddiy tadqiqotlar 1934 yilda A.Yu. Yakubovskiy tomonidan boshlanib, vohaning shimoli sharqiy qismlari mudofaa istehkomlari tekshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Мухаммажонов А. Бухоро шаҳри 2500 ёшда. –Т.: Фан, 1998. – Б. 41
2. Жумаев А.Ш. Бухоро археологияси (ўқув услубий қўлланма). -Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2006. – Б.
3. Бухоро Шарқ дурдонаси. Т: Шарқ, 1997.
4. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. SCHOLAR, 1(28), 298-302.
5. Bbohusenov, A. (2024). THE RESULTS OF THE ARCHAEOLOGICAL RESEARCH WORKS CARRIED OUT IN BACTRIA. Modern Science and

⁴ Жумаев А.Ш. Бухоро археологияси (ўқув услубий қўлланма). -Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2006. – Б. 39

⁵ Мухаммажонов А. Бухоро шаҳри 2500 ёшда. –Т.: Фан, 1998. – Б. 40

- Research, 3(2), 671–675. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30363>
6. Ashurovich, B. A. . (2024). Results of the Archaeological Research Works Carried Out in Bactria. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 113–119. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2686>
 7. Bobohusenov, A. (2024). HISTORICAL GEOGRAPHY OF BUKHARA OASIS. Modern Science and Research, 3(2), 634–640. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29429>
 8. Akmal, B., & Ismat, N. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXELOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. Innovations in Technology and Science Education, 2 (8), 73–80.
 9. Akmal , B. (2024). THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL. Modern Science and Research, 3(1), 694–698. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28381>
 10. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. TADQIQOTLAR, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
 11. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. International Journal Of History And Political Sciences, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
 12. Bobohusenov Akmal. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 65–70. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10037>